



**YUNESKO ishlari bo'yicha**  
**O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi**

**National Commission**  
**of the Republic of Uzbekistan for UNESCO**

O'zbekiston, Toshkent, 100029, T.Shevchenko ko'chasi 1-uy / 1, T.Shevchenko street, Tashkent, 100029, Uzbekistan  
tel: (+998-91) 477-70-90 e-mail: info@unesco.uz e-xat: ncu@exat.uz

2025-yil 01 - 12 No 359-6 /25

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Fanlar akademiyasi**

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim fan va**  
**innovatsiyalar vazirligi**

*Ma'lumot uchun:*

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Tashqi ishlar vazirligi**

2025-2026 o'quv yili uchun YUNESKO va Xitoy Hukumatining "Buyuk devor" stipendiyalari tanlovi e'lon qilindi (<https://www.unesco.org/en/fellowships/greatwall>).

Mazkur stipendiya dasturi doirasida Xitoy universitetlarida bir yillik tadqiqotchi (45 yosh), yetakchi tadqiqotchi (50 yosh), magistratura (35 yosh) hamda doktorantura (40 yosh) kurslari taklif etiladi. Xalqaro aviachipta va bir yillik o'qish bilan bog'liq xarajatlarni YUNESKO va Xitoy Hukumati o'z zimmasiga oladi. Tanlovda qatnashish istagida bo'lgan nomzodlar oliy ma'lumotga (magistr darajasiga va ayrim sohalar uchun bakalavr darajasiga) ega bo'lishi lozim. Nomzodlardan, shuningdek, ingliz tilini bilishi, yoshi tegishli kurslarga mos kelishi, aqlan va jismonan sog'lom bo'lishi talab etiladi. Dasturda qatnashayotgan Xitoy oliygohlari va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotni (<https://www.campuschina.org/universities/index.html>) veb-sahifasi orqali olish mumkin.

Tanlovda ishtirok etmoqchi bo'lgan nomzodlar stipendiya yo'riqnomasi bilan tanishib, quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

- maxsus ariza varaqasi (<http://www.csc.edu.cn/studyinchina>) onlayn tarzda to'ldiriladi va nusxalari uchta rasm bilan birgalikda taqdim etiladi);
- diplomning yoki sertifikatlarining hamda reyting qaydnomasining tasdiqlangan nusxasi va tarjimasi;
- Xitoy universitetlarining biridan kelgan taklifnoma (agar oldindan ushbu universitet bilan aloqa o'rnatilgan bo'lsa);
- nomzodning ilmiy faoliyati bilan yaqindan tanish bo'lgan ikki olimning tavsiyanomalari (ingliz tilida);

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

- stipendiya uchun taqdim etilayotgan ilmiy tadqiqot loyihasi (500 soʻzdan iborat);
- tibbiy maʼlumotnoma (ilova etilayotgan maxsus shaklda);
- ingliz tili bilimini tasdiqlovchi sertifikat.

Shu munosabat bilan yuqoridagi taʼkidlangan tanlovda ishtirok etish uchun gender tengligiga rioya qilgan holda, 2 nafar mutaxassis nomzodini YUNESKO ishlari boʻyicha Milliy komissiya kotibiyatiga **2026-yilning 23-yanvar** kuniga qadar tavsiya etishda amaliy yordam berish soʻraladi.

Ilova: v.

**Bosh kotib**



**O. Gaipov**